

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ACHILOVA NARGIZA BAXTIYOROVNA

**MAMLAKAT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA
O‘ZBEKISTONNING MILLIY BRENDINI SHAKLLANTIRISH**

08.00.11 – Marketing

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on economic sciences**

Achilova Nargiza Baxtiyorovna

Мамлакат рақобатbardoshligini oshirishda O'zbekistonning milliy brendini shakllantirish.....3

Ачилова Наргиза Бахтиёровна

Формирование национального бренда в повышении конкурентоспособности страны..... 31

Achilova Nargiza Bakhtiyorovna

Formation of a national brand in increasing the country's competitiveness..... 61

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published papers..... 66

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ACHILOVA NARGIZA BAXTIYOROVNA

**MAMLAKAT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA
O‘ZBEKISTONNING MILLIY BRENDINI SHAKLLANTIRISH**

08.00.11 – Marketing

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2024.3.PhD/Iqt4540 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Axmedov Durbek Kudratillayevich
iqtisod fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Boltabaev Maxmudjon Rustamovich
iqtisod fanlari doktori, professor

Bekmurodov Adxam Sharipovich
iqtisod fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "____" _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100003, Toshkent shahri, I.Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-01-49, (99871) 239-43-51. e-mail: info@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ - raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51. e-mail: info@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025- yil " ____ " _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil " ____ " _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

G.K. Abduraxmanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

O.Dj. Djurabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Sh.A.Allayarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotining globallashuvining shiddat bilan o‘zib borishi xo‘jalik faoliyati ishtirokchilarining raqobatbardoshligiga jiddiy talablar qo‘ymoqda. Bunda raqobat kurashining shakllari tobora kengayib, mamlakatlar uchun o‘z raqobatbardoshligini ta‘minlash ularning jahondagi nufuzi va ravnaqining muhim shartiga aylanmoqda. Zamonaviy dunyoda davlatning muvaffaqiyatli iqtisodiy rivojlanishi ko‘p jihatdan uning xalqaro maydondagi o‘rni, mavqei, reytingi va imijiga bog‘liq. “AQSH, Xitoy, Singapur, Janubiy Koreya, Fransiya, Germaniya va boshqa xorijiy davlatlar o‘z milliy brendlarini takomillashtirish va jahon hamjamiyatida ilgari surish bo‘yicha faol ish olib bormoqdalar. 2024-yilda AQSH milliy brendi 32,27 trillion AQSH dollariga baholanib, Brand Finance xalqaro konsalting kompaniyasi tomonidan tuzilgan Nation Brands 2024 reytingida 1-o‘rinni egalladi. Xitoy 19,96 trillion AQSH dollari qiymati bilan 2-o‘rinni, Germaniya, Yaponiya va Buyuk Britaniya esa mos ravishda 3-, 4- va 5-o‘rinlarni egalladi”¹. Shunday ekan, bugungi kunda har bir davlat uchun maqbul “tashqi qiyofa” – jahon hamjamiyati tomonidan ijobiy qabul qilinishini ta‘minlaydigan mamlakat imijini shakllantirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Bu esa ko‘p jihatdan uning iqtisodiy va siyosiy kuchini, shuningdek, boshqa mamlakatlar bilan ijtimoiy-madaniy munosabatlarini belgilaydi.

Jahonda global raqobat jarayonlarining tobora keskinlashib borishi sharoitida milliy brendni shakllantirish muammolariga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Milliy qadriyatlar va tarixiy merosni brend strategiyasiga integratsiya qilish, xalqaro miqyosda raqobatbardosh brend pozitsiyasini yaratish, davlat imidji va millat salohiyatini oshirishga qaratilgan kommunikatsiya usullarini takomillashtirish, iqtisodiy va madaniy resurslardan brend kapitalini shakllantirishda samarali foydalanish, turizm, eksport va investitsiya kabi sohalar orqali milliy brendni global maydonga olib chiqish, raqamli texnologiyalar va internet platformalari orqali milliy brendni ilgari surishning innovatsion usullarini joriy etish milliy brendni shakllantirish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonning xalqaro maydonda o‘z milliy manfaatlarini ilgari surishi, o‘ziga xos qadriyatlari va siyosiy suverenitetini saqlab qolishi uchun zarur bo‘lgan milliy brendni yaratishi dolzarb ahamiyatga ega. Ta‘kidlash joizki, mamlakatimiz rahbariyati tomonidan ilgari surilayotgan O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatimizning xalqaro imijini mustahkamlash alohida vazifa sifatida belgilangan². “Jamiyatni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlarimiz natijasida yangi O‘zbekiston shakllanmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizdagi demokratik o‘zgarishlar ortga qaytmaydigan tus oldi”³. Amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlar doirasida milliy branding siyosati nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb

¹ Nation Brands 193 2024. Reports. <https://brandirectory.com/reports/nation-brands>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.02.2017 yildagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. 23.09.2020 yil.

etib, mamlakatning xalqaro obro'sini yuksaltirish va uning jahon maydonidagi o'rnini mustahkamlash uchun muayyan chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Shundan kelib chiqib, ilg'or xorijiy tajribalar asosida O'zbekiston milliy brendini o'rganish, shakllantirish va targ'ib qilishga bo'lgan talab ortib bormoqda. Bunda milliy o'ziga xoslik mustahkamlash va mamlakat aholisining o'z kelib chiqishi to'g'risidagi tasavvurini yaxshilash, uning siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini ilgari surish bilan bir qatorda, mahalliy tarmoqlar hamda tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish orqali eksportni rag'batlantirish, mamlakatning turistik va investitsion jozibadorligini oshirish, malakali ishchi kuchi, yosh olimlar uchun qulay migratsiya muhitini yaratish, innovatsiyalarni rag'batlantirish, madaniyat va san'atni rivojlantirish kabi yo'nalishlar milliy branding strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'lishi lozim. Binobarin, mamlakatning kuchli brendini yaratish murakkab vazifa bo'lib, uni shakllantirish va targ'ib qilishda mamlakatning an'analari va afzalliklarini aks ettiruvchi, real faktlar va o'ziga xos xususiyatlarga asoslangan har tomonlama yondashuvni talab etadi. Brendda aks ettirilgan idealga intilishga yordam beradigan milliy o'zlikni anglashni shakllantirish mafkuraviy asos bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-maydagi PF-71-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2023-yil 11-oktyabrdagi PQ-331-son "Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohalarida islohotlarni yanada jadallashtirish va sohaning eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2024-yil 14 martdagi PQ-126-son "Tashqi savdo va hududiy sanoatni rivojlantirishda tadbirkorlar birlashmalarining rolini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli bo'lgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Milliy branding mavzusi, ayniqsa, XXI asr boshlaridan butun dunyoda keng tarqalib, ommalasha boshladi. Ushbu mavzuni tadqiq qilishning nazariy va uslubiy asoslari mahalliy va xorijiy taniqli mutaxassislarining hududiy, milliy, xalqaro marketing, shuningdek, ommaviy diplomatiya muammolariga bag'ishlangan asarlarida mavjud. So'nggi yillar davomida milliy branding xorijiy ekspertlar, hukumat va nodavlat tashkilotlari, turli xil iqtisodiy faoliyat subyektlari tomonidan eng ko'p o'rganilgan marketing yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Marketing vositasi sifatida milliy brendlar S.Anxolt, X.Gadjinson, F.Gilmor, T.Ged, K.Dinni, F.Kotler, M.Kavaratsiz, V.Olins, J.Rendon, In Fan, Xelsop va

boshqa xalqaro ekspertlarning ilmiy nashrlarida tadqiq qilingan⁴. Shuningdek, MDH mamlakatlari olimlari o'rtasida Vasilenko, Galumov, Kanaeva, Kortunov, Kursayeva, Tyukarkina, M.Chakiyev va boshqalarning ishlarini alohida ta'kidlash lozim⁵.

Marketing tizimlarini rivojlantirish va marketing vositalaridan foydalanish, korxonalar va tarmoqlarning eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida milliy marketing tizimini rivojlantirish masalalarini o'rganishda Z.Adilova, A.Bekmuradov, M.Boltabaev, S.G'ulomov, M.Qosimova, T.Shadiyev, Sh.Ergashxodjayevalarning qo'shgan hissalarini salmoqli. D.Ahmedov, M.Ikromov, B.Xadiyev, S.Eshmatov, M.Eshov va boshqalarning tadqiqotlari milliy va mahalliy brendlarni ilgari surish masalalariga bag'ishlangan⁶. Bugungu kunda mamlakatning jahondagi tashqi imijini yaxshilash masalalariga katta e'tibor qaratilayotgan bo'lsa-da, milliy brendni shakllantirish va ilgari surishning marketing xususiyatlari, mamlakatning raqobat pozitsiyasini yaxshilash uchun yagona milliy brend strategiyasini yaratish masalasi yanada chuqurroq tadqiqotlarni talab qiladi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

⁴ Anholt Simon. 2005. Competitive Identity: The New Brand Management for Nations, Cities and Regions.; Gudjonsson H. 2005. Nation branding. Place Branding.; Gilmore F. 2002. A country — Can it be repositioned? Spain — The success story of country branding. Journal of Brand Management 9 (4): 281–293.; [Thomas Gad](#) 2011. 4-D Branding: Cracking the Corporate Code of the Network Economy. Financial Times Prentice Hall.; Dinnie K. Nation Branding: Concepts, Issues, Practice. Oxford: Butterworth-Heinemann. 2008; Philip Kotler, Marketing places: attracting investment, industry and tourism to cities, states and nations/ Philip Kotler, Donald H. Haider, Irving Rein. New York, Free Press, 1993.; Kavartzis M. 2005. Place branding: A review of trends and conceptual models. The Marketing Review 5.; ; Olins W. 2002. Branding the nation — The historical context. Journal of Brand Management.; Rendon J. 2003. When nations need a little marketing. New York Times 23 (November).; Fan Y. 2006. Branding the nation: What is being branded? Journal of Vacation Marketing 12 (1): 5–14.; Heslop L., Papadopoulos N. 1993. But who knows where or when: Reflections on the images of countries and their products. In: L. Heslop, N. Papadopoulos (eds.). Product-Country Images: Impact and Role in International Marketing. New York: International Business Press; 39–75.;

⁵ Василенко И. А. 2012. Имидж России: концепция национального брендинга. Проблемный анализ и государственно-управленческое проектирование 4: 66–78.; Галумов Э Имидж против имиджа [Книга]. - Москва: [б.н.], 2005; Kaneva N. 2011. Nation branding: Toward an agenda for critical research. International Journal of Communication 5: 117–141.; Кортунов С. Национальная идентичность: постижение смысла [Книга]. - Москва: Аспект Пресс, 2009.; Курсаева О. Национальный бренд и конкурентоспособность компаний: альтернативный подход к национальному брендингу [Журнал] // Вестник СПбГУ. - [б.м.]: Менеджмент, 2021 г.- 1: Т. 20. - стр. 38; Тюкарина О. Роль национального бренда при формировании внешнеполитического имиджа современной России // Диссертация на соискание ученой степени кандидата политических наук. - Москва: [б.н.], 2012 г.; М.Чакиев. Бренд страны, как инструмент развития государства. (на примере Казахстана). 2016г. <http://brand.kazakh.ru/Brand/20927.php>;

⁶ Адылова З.Дж. Маркетинговая стратегия продвижения экспортной продукции на международные рынки. Дис. на соиск. уч. степ. док. экон. наук. Т.2008г.; Бекмуратов, А. Ш., Косимова, М. С., Эргашходжаева, Ш. Ж. (2010). Стратегический маркетинг. Учебное пособие. Т.: ТДИУ; Болтабоев М. (2019). Маркетинг фаолиятини бошқаришнинг назарий ва амалий жиҳатлари. Диссертация; Гулямов, С. С. (2013). Маркетинг илмий тадқиқотлари (ўқув қўлланма). Тошкент. ТДАУ, 358; Ходиев Б. (2009). Формирование бизнес-ценности в системе управления маркетингом. Диссертация.; Шодиева Д. Миллий иқтисодийнинг инновацион ривожланишини инвестициялашнинг назарий асосларини такомиллаштириш. (PhD) дисс. автореф. -Т.:2020 Б.; Эргашходжаева Ш., Усмонова Д. (2022). Мева-сабзавотчилик ва узумчилик саноати корхоналари экспортини ошириш бўйича маркетинг стратегияларидан фойдаланиш ҳолати. Архив научных исследований, 2(1); Ахмедов Д. (2022) «Made in Uzbekistan»: как продвигать национальный бренд. Народное слово. 20 марта 2022 г.; Икрамов М.А., Эшматов С.А. Брендинг. Учебное пособие, Т. 2021г., Эшматов С. (2020) Сут ва сут маҳсулотлари бозорида бренд қийматини яратиш. Иқтисодий ва инновацион технологиялар. №2 (март-апрель).

Tadqiqodning maqsadi ilg'or xalqaro tajribalar asosida O'zbekiston Respublikasi milliy brendini shakllantirish va targ'ib qilish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

milliy brandingning mohiyati va konseptual asoslarini aniqlash;

milliy brendni yaratish tamoyillari va shakllanish bosqichlarini tahlil qilish;

milliy branding siyosati samaradorligini baholash usullarini tahlil qilish;

O'zbekistonning ijobiy imijini shakllantirishda milliy brendni yaratish va ilgari surish bo'yicha xorijiy tajribadan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

O'zbekiston Respublikasida milliy brandingni rivojlantirish amaliyoti va tendensiyalari tahlil qilish;

mamlakat milliy brendini yaratish muammolari va istiqbollari aniqlash;

O'zbekiston milliy brendini shakllantirish va ilgari surish bo'yicha takliflar va chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish;

O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish va mamlakat milliy brendini ilgari surishda eksportni rag'batlantirish imkoniyatlarini aniqlash;

O'zbekiston milliy brandingning istiqboldagi rivojlanishini modellashtirish va prognozlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida mamlakatning xalqaro maydondagi imiji va raqobatbardoshligini shakllantirish elementi sifatida O'zbekiston milliy brendi olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib milliy brend va uning asosiy tarkibiy qismlarining shakllanishi hamda turli vositalar va mexanizmlar orqali mamlakat raqobatbardoshligini oshirishga ta'sir etishi jarayonlarida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida induksiya, deduksiya, qiyosiy va tizimli tahlil, sintez, benchmarking, SWOT-tahlil, BCG matritsasi, ekspert baholash, kabinet tadqiqotlari, statistik baholash, iqtisodiy-matematik modellashtirish, prognozlash va boshqa bir qator usullardan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "milliy brend" tushunchasining iqtisodiy mazmuni mamlakatning o'ziga xos madaniy, iqtisodiy, tarixiy, ijtimoiy va tabiiy xususiyatlari asosida shakllangan, uning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshiruvchi ma'nolar, tasavvurlar va assotsiatsiyalar majmuini investorlar, sayyohlar va xalqaro hamkorlar uchun tan olinishi va jozibadorligini hamda siyosiy ta'sirini ta'minlash nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

O'zbekiston milliy brendini boshqarish modeli milliy branding salohiyatini baholash (SB_{MB}), mamlakat branding identifikatsiyasini shakllantirish (ISH_{MB}), milliy brendni targ'ib qilish (TQ_{MB}), milliy branding natijalari monitoringi (M_{MB}) tarkibiy qismlarini o'zaro muvofiqlashtirish imkonini beruvchi yaxlit tizim sifatida takomillashtirilgan;

milliy brendlar orqali mamlakatning ijobiy qiyofasini shakllantirishning yagona milliy mafkurasiga mos keladigan "Made in Uzbekistan" kampaniyasi va mamlakatning milliy brendi kontseptsiyasini ilgari surishda yarmarkalar, mintaqaviy va xalqaro ko'rgazmalarda milliy tovar brendlarini targ'ib qilish ($TBT_{MB}=0,42$), jahon bozorlarida sotish uchun onlayn platformalarni tashkil etish

($OP_{MB}=0,32$) va elektron tijoratdan ($ET_{MB}=0,26$) samarali foydalanish taklif etilgan; milliy brendini shakllantirishning ixtisoslashtirilgan modelini ishlab chiqish asosida “Brand Finance Nation Brand” xalqaro reytingida O‘zbekiston milliy brendi pozitsiyasining o‘zgarish tendentsiyalarining 2040-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda “milliy brend” va “milliy branding” tushunchalariga mualliflik yondashuvi ishlab chiqilgan;

milliy brendni yaratish tamoyillari va shakllantirish bosqichlari tahlil etilgan;

milliy branding samaradorligini baholash usullari o‘rganildi hamda milliy brendlarni yaratish va targ‘ib qilish borasida mamlakatlarning muvaffaqiyatli tajribasi o‘rganilib, undan O‘zbekistonning ijobiy qiyofasini shakllantirishda foydalanish imkoniyatlari aniqlangan;

mamlakatda milliy brandingning rivojlanish yo‘nalishlari tahlil qilingan;

O‘zbekiston milliy brendini yaratish bo‘yicha muammolar o‘rganilib, takliflar ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston milliy brendining o‘ziga xos xususiyatlari aniqlangan;

O‘zbekiston milliy brendini boshqarish modeli ishlab chiqilgan;

iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish va mamlakat milliy brendini targ‘ib qilish uchun eksportni rag‘batlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar taklif etilgan;

O‘zbekiston milliy brendi reytingi o‘zgarishining 2040-yilgacha bo‘lgan uzoq muddatli prognoza ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi milliy brendni shakllantirish va uning mamlakat raqobatbardoshligiga ta’siriga oid dolzarb nazariy va amaliy yondashuvlarning o‘rganilganligi, bu borada xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari tadqiq etilganligi, regression tahlil, panel ma’lumotlari tahlili va trend prognozi kabi ekonometrik usullarning qo‘llanilganligi bilan asoslanadi. Empirik baza milliy va xalqaro manbalar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma’lumotlarini o‘z ichiga oladi, bu esa bog‘liqlik va tendensiyalarni obyektiv baholash, shuningdek, mas’ul tashkilotlar tomonidan xulosa va takliflarni amaliyotga joriy etish imkonini beradi. Modellar multikollinearlik va geteroskedastiklikni hisobga olgan holda statistik ahamiyatlilik va barqarorlik sinovidan o‘tkazilgan, natijalar xalqaro tajriba bilan taqqoslangan va ekspert muhokamalari bilan tasdiqlangan, bu ularning ishonchliligi va amaliy qo‘llanilishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, tadqiqot davomida olingan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan O‘zbekiston milliy brendini shakllantirish va uni jahon miqyosida targ‘ib qilishning fundamental va amaliy jihatlarini chuqur o‘rganishga qaratilgan maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarida manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiya natijalari, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan mamlakat milliy brendini takomillashtirish bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishda, uning jahondagi raqobatbardoshligini oshirishda, O‘zbekistonning xalqaro Milliy brendlar

indeksidagi o‘rnini yaxshilashda foydalanish mumkin. Dissertatsiya materiallaridan oliy ta’lim muassasalarida “Marketing”, “Brending”, “Xalqaro marketing strategiyalari” o‘quv fanlarini takomillashtirish va o‘qitishda foydalanish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi, Eksportni rag‘batlantirish agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi hamda boshqa soha idoralari ushbu dissertatsiya tadqiqoti doirasida olingan natijalarining potensial foydalanuvchilari hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi.

Mamlakat raqobatbardoshligini oshirishda O‘zbekistonning milliy brendini shakllantirish borasida olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “milliy brend” tushunchasining iqtisodiy mazmunini mamlakatning o‘ziga xos madaniy, iqtisodiy, tarixiy, ijtimoiy va tabiiy xususiyatlari asosida shakllangan, uning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshiruvchi ma’nolar, tasavvurlar va assotsiatsiyalar majmuini investorlar, sayyohlar va xalqaro hamkorlar uchun tan olinishi va jozibadorligini hamda siyosiy ta’sirini ta’minlash nuqtai nazaridan takomillashtirish taklifidan oliy o‘quv yurtlarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalarini uchun tavsiya etilgan “Brending” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356-son buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda investorlar, sayyohlar va xalqaro hamkorlar uchun tan olinishi va jozibadorligini hamda siyosiy ta’sirini ta’minlash nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan “milliy brend” tushunchasi bo‘yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

O‘zbekiston milliy brendini boshqarish modeli milliy branding salohiyatini baholash (SB_{MB}), mamlakat brendining identifikatsiyasini shakllantirish (ISH_{MB}), milliy brendni targ‘ib qilish (TQ_{MB}), milliy branding natijalari monitoringi (M_{MB}) tarkibiy qismlarini o‘zaro muvofiqlashtirish imkonini beruvchi yaxlit tizim sifatida takomillashtirish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025 yil 14-apreldagi 01-07-27-4127-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O‘zbekiston milliy brendini boshqarish modelining tarkibiy qismlarini o‘zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan;

milliy brendlar orqali mamlakatning ijobiy qiyofasini shakllantirishning yagona milliy mafkurasiga mos keladigan “Made in Uzbekistan” kampaniyasi va mamlakatning milliy brendi konsepsiyasini ilgari surishda yarmarkalar, mintaqaviy va xalqaro ko‘rgazmalarda milliy tovar brendlarini targ‘ib qilish ($TBT_{MB}=0,42$), jahon bozorlarida sotish uchun onlayn platformalarni tashkil etish ($OP_{MB}=0,32$) va elektron tijoratdan ($ET_{MB}=0,26$) samarali foydalanish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-martdagi PQ-126-son “Tashqi savdo va mintaqaviy sanoatni rivojlantirishda tadbirkorlar birlashmalarining rolini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining 1- va 2-bandlari, 2- va 3-ilovalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025 yil 14-apreldagi 01-07-27-4127-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur

ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida yarmarkalar, mintaqaviy va xalqaro ko'rgazmalarda milliy tovar brendlarini targ'ib qilish, jahon bozorlarida sotish uchun onlayn platformalarni tashkil etish va elektron tijoratdan samarali foydalanish imkoni yaratilgan;

milliy brendini shakllantirishning ixtisoslashtirilgan modelini ishlab chiqish asosida "Brand Finance Nation Brand" xalqaro reytingida O'zbekiston milliy brendi pozitsiyasining o'zgarish tendensiyalarining 2040-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025 yil 14-apreldagi 01-07-27-4127-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida "Brand Finance Nation Brand" xalqaro reytingida O'zbekiston milliy brendi pozitsiyasining o'zgarish tendensiyalari asosida uzoq muddatli istiqboldagi asosiy parametrlarni o'zaro muvofiqligini ta'minlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta ilmiy maqola (11 ta mahalliy, 2 ta xalqaro) va 9 ta tezis respublika va xalqaro konferensiya to'plamlarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 147 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ilmiy ahamiyati asoslanib, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etish, chop etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligining omili sifatida milliy brandingning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida mamlakatlar milliy brandingning mohiyati va konseptual asoslari ko'rib chiqilgan, milliy brandingga asosiy yondashuvlar tahlil qilingan, milliy brandingning vazifalari va tarkibiy qismlari, shuningdek, xalqaro raqobatbardoshlikning asosiy mezonini va ko'rsatkichi sifatida milliy brandingni shakllantirish bosqichlari o'rganilgan.

Milliy branding mavzusi, ayniqsa, XXI asr boshlaridan butun dunyoda keng ommalashib, tarqala boshladi. Bu mamlakatning siyosiy va iqtisodiy manfaatlari, ijtimoiy va madaniy xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan keng qamrovli

marketing faoliyati bo‘lib, milliy brend qadriyatlarini aniqlash, shuningdek, mamlakat imijining tarkibiy qismini o‘lchash, shakllantirish va boshqarish imkonini beradi.

“Milliy brend” atamasini ilmiy muomalaga Anholt kirigan bo‘lib, uning “X mamlakatida ishlab chiqarilgan” yorlig‘i orqali mahsulot qiymatini yaratish xususiyatini ta’kidladi va qiymatning ishlab chiqaruvchi mamlakat bilan bog‘liq ijobiy assotsiatsiyalar tufayli shakllanishini ko‘rsatdi: mamlakat iste‘molchilarda ba’zi barqaror assotsiatsiyalarni uyg‘otib, o‘z hududida ishlab chiqarilgan tovarlarga shu xususiyatlarni o‘tkazadi. Biroq, XX asr oxirida globallashuv jarayonlarining kengayishi va mamlakatlarning xalqaro savdo va iqtisodiy munosabatlari rivojlanishi tufayli bir davlat hududida ishlab chiqarilgan ko‘plab tovarlar dunyoning boshqa mamlakatlarida ham ishlab chiqarila boshlandi. “X mamlakatda yig‘ilgan”, “X mamlakat dizayni”, “X mamlakat uchun ishlab chiqarilgan” va boshqa markirovkalarning paydo bo‘lishi bilan yakuniy mahsulot turli mamlakatlarda yig‘ilishi va qadoqlanishi mumkin bo‘lganida, “X mamlakatda ishlab chiqarilgan” iborasi haqiqatni aks ettirmay hamda qo‘shimcha qiymatni shakllantirmay qo‘ydi. Shu sababli, Anholt uni “raqobatbardosh o‘ziga xoslik” deb qayta ta’rifladi va ommaviy diplomatiya hamda brendlarni boshqarish texnologiyalari va vositalaridan foydalangan holda mamlakat raqobatbardoshligini oshirish modelini yaratdi. U “milliy brend” atamasini quyidagicha ta’rifladi: “eksport, davlat boshqaruvi, turizm, investitsiyalar va immigratsiya, madaniyat va meros, aholi kabi davlat faoliyatining oltita yo‘nalishi doirasida insonlarning mamlakatga nisbatan tasavvurlari yig‘indisi.”



1-rasm. Raqobatbardosh o‘ziga xoslikning oltiburchagi⁷.

Turli mualliflar tomonidan “milliy brend” tushunchasiga berilgan ta’riflarni o‘rganib chiqib, 1-jadvalda biz ularni tizimlashtirishga harakat qildik.

Bizning talqinimizda: “Milliy brend - mamlakatning o‘ziga xos madaniy, iqtisodiy, tarixiy, ijtimoiy va tabiiy xususiyatlari asosida shakllangan, mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshiruvchi ma’nolar, tasavvurlar va assotsiatsiyalar majmui”. Milliy brend mamlakatning qadriyatlarini, yutuqlari, afzalliklari va salohiyatini aks ettiradi, bu uning investorlar, sayyohlar va xalqaro hamkorlar uchun tan olinishi va jozibadorligini, shuningdek, uning siyosiy ta’sirini ta’minlaydi.

⁷ Manba: The hexagon of Competitive Identity Source: Simon Anholt, Brand New Justice (Oxford: Butterworth Heinemann, 2003)

O‘z navbatida, “milliy brending mamlakatning jahon maydonidagi o‘ziga xos imiji va nufuzini shakllantirish, boshqarish va targ‘ib qilishning keng qamrovli strategiyasi bo‘lib, u maqsadli auditoriyalarda ijobiy idrok va sodiqlikni yaratishga qaratilgan konsepsiyalar, vizual identifikatorlar, marketing va kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi”. Milliy brending mamlakatning turistik, investitsion, madaniy va ishbilarmonlik jozibadorligini oshirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

1-jadval

“Milliy brend” atamasiga ta’riflar⁸

№	Muallif	Ta’rif
1.	Anholt Simon (1998)	Mamlakat iste’molchilarda ba’zi barqaror assotsiatsiyalarni keltirib chiqarib, o‘z hududida ishlab chiqariladigan mahsulotlarga ularni ulashadi.
2.	Anholt Simon (2005)	Davlat faoliyatining oltita yo‘nalishi, jumladan: eksport, davlat boshqaruvi, turizm, investitsiyalar va immigratsiya, madaniyat va meros, aholi borasida insonlarning mamlakatga nisbatan tasavvurlari yig‘indisi.
3.	Gudjonsson H. (2005)	Milliy brenddan iqtisodiyot va diplomatiyani rivojlantirish maqsadida foydalanish mumkin.
4.	Kotler P., Gertner D. (2002).	...bu insonlarning mamlakatga nisbatan ishonchlari, taassurotlari yig‘indisi, davlat bilan bog‘liq ko‘plab assotsiatsiyalar va u haqidagi ma’lumotlarni soddalashtirishdan iborat bo‘lgan ma’lum bir tasavvur.
5.	Fan, Y. (2010)	Xalqaro manfaatdor tomonlar ongidagi millat haqidagi tasavvurlar majmui bo‘lib, u quyidagi elementlarni o‘z ichiga olishi mumkin: insonlar, hudud, madaniyat, til, tarix, taom, moda, mashhur shaxslar, global brendlari va hokazo.
6.	Dinnie K. (2008)	Davlatga uning o‘ziga xos xususiyatlariga mos keladigan va barcha maqsadli auditoriyalar uchun dolzarb bo‘lgan farqlovchi xususiyatni ta’minlaydigan noyob ko‘p qirrali elementlar to‘plami.
7.	Kotler F., Asplund K., Rein I., Xayder D.(2005)	hudud imidji - odamlarning ushbu joyga nisbatan ishonchlari, tasavvurlari va taassurotlari yig‘indisi.
8.	Anholt S. (2008), Fan Y. (2006)	Mamlakatning ijobiy imijini shakllantirish bo‘yicha milliy strategiyaning bir qismi.
9.	Галумов Э. А. (2003)	Davlat tizimining o‘zaro bog‘liq obyektiv xususiyatlari (iqtisodiy, geografik, milliy, madaniy, demografik va boshqalar) majmui bo‘lib, ular mamlakatning murakkab ko‘p omilli jahon tuzilishi quyi tizimi sifatida evolyutsion rivojlanishi jarayonida shakllangan. Bu tizim bo‘g‘inlarining o‘zaro ta’siri samaradorligi mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy-diniy va boshqa jarayonlar tendensiyalarini belgilaydi.
10.	Fayzullayev A. (2017)	Global raqobat sharoitida dunyo mamlakatlari brendlarga aylanib, xalqaro maydonda o‘z imijlarini shakllantirish bilan shug‘ullanmoqda.
11.	Achilova N. (2024)	Bu mamlakatning noyob tarixiy, madaniy, tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlari asosida shakllangan mamlakat haqidagi ma’nolar, tasavvurlar va assotsiatsiyalar yig‘indisi bo‘lib, ular mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshiradi.

⁸ Manba: muallif ishlanmasi

Anholt jahon amaliyotida qo'llaniladigan milliy branding samaradorligining bir qator mezonlarini keltiradi:

- *kommunikatsiya sohasida*: barcha OAV kanallarida mamlakat haqidagi ijobiy eslatmalar sonining ko'payishi (va shu bilan birga salbiy eslatishlar sonining kamayishi), barcha yetakchi brendlarning "tanilishi" darajasining o'sishi, bu esa umuman mamlakat imijining ijobiy o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi;
- *iqtisodiy sohada*: investitsiyalar oqimining ko'payishi, tashqi bozorlarda eksportning o'sishi va kengayishi;
- *siyosiy sohada*: xalqaro hamkorlikning kengayishi, siyosiy ishonch kapitalining o'sishi;
- *ijtimoiy sohada*: fuqarolar hayot sifatining yaxshilanishi, ijtimoiy-madaniy o'ziga xoslikning mustahkamlanishi;
- *madaniy sohada*: milliy madaniyat ramziy kapitali nufuzining mustahkamlanishi;
- *turizm sohasida*: turizm bozorining jadal rivojlanishi⁹.

Branding kampaniyasi samaradorligining yuqorida ko'rsatilgan barcha mezonlari muhimdir, ammo aniq maqsadlardan kelib chiqqan holda mamlakat brendini ilgari surish strategiyasini ishlab chiqishda ushbu mamlakat uchun ayni paytda ustuvor bo'lgan branding siyosati yo'nalishlariga e'tibor qaratish lozim.

Dissertatsiyaning **“Xalqaro raqobatbardoshlik mezoni sifatida xorijiy mamlakatlarning xalqaro va milliy branding amaliyoti tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida mamlakatlar milliy branding samaradorligini baholash uchun taklif etilgan The Anholt-Ipsos Nation Brands Index va Brand Finance Nation Brands metodikalari ko'rib chiqilgan, xalqaro raqobat sharoitida Singapur, Janubiy Koreya va Xitoyning branding siyosati o'rganilgan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida milliy brandingni rivojlantirish amaliyoti va tendensiyalari tahlil qilingan.

Britaniyaning Future Brand Bloom Consulting xalqaro konsalting agentligi tomonidan har yili baholanadigan Brand Finance Nation Brands reytingi quyidagi parametrlarning global tadqiqotlari asosida tuziladi: YaIM, investitsiya va turizm jozibadorligi, siyosat va savdo qoidalari, ijtimoiy konsepsiyalar va boshqalar.

Brand Finance Nation Brands tadqiqot metodologiyasi tijorat brendlarini baholash amaliyotida keng qo'llaniladigan “royaltidan ozod qilish usuli¹⁰” (Royalty Relief Method) asosida dunyoning 100 ta yetakchi mamlakatidagi milliy brendlarning kuchi va qiymatini baholaydi. Har bir mamlakatga milliy brendning kuchi va qiymati to'g'risida hisobot taqdim etiladi. O'zbekiston milliy brendi modelini yaratishda aynan shu reytingdan bog'liq o'zgaruvchi sifatida foydalanilgan.

⁹ Anholt, S. (2003). Brand new justice: The upside of global branding. Elsevier, p.146

¹⁰ Brand Finance agentligi dunyoning eng yirik kompaniyalarini baholash va boshqa reytinglarini tuzish uchun ushbu usuldan foydalanadi.

2-jadval

Brand Finance milliy brendlar indeksi 2023-2024-yillar¹¹

T/r	Mamlakat nomi	Reytingdagi o'рни		Milliy brend qiymati (mln. doll.)		Milliy brend kuchi	
		2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
1.	Amerika Qo'shma Shtatlari	1	1	\$30,309,110	\$32,271,140	AAA-	AAA-
2.	Xitoy	2	2	\$23,085,110	\$19,960,020	AA+	AA+
3.	Germaniya	3	3	\$5,075,970	\$4,985,350	AAA-	AAA-
4.	Yaponiya	5	4	\$4,448,780	\$4,406,090	AA+	AA+
5.	Buyuk Britaniya	4	5	\$4,796,830	\$4,036,790	AAA-	AAA-
6.	Fransiya	6	6	\$3,669,880	\$3,522,360	AAA-	AAA-
7.	Hindiston	7	7	\$2,923,950	\$2,944,480	AA-	AA
8.	Kanada	8	8	\$2,621,270	\$2,670,820	AAA-	AAA
9.	Italiya	9	9	\$2,345,220	\$2,326,270	AA	AA+
10.	Janubiy Koreya	10	10	\$2,080,520	\$1,936,760	AA	AA+
11.	Rossiya	24	25	N/A	N/A	N/A	N/A
12.	Turkiya	34	34	N/A	N/A	N/A	N/A
13.	Qozog'iston	47	45	N/A	N/A	N/A	N/A
14.	O'zbekiston	57	57	N/A	N/A	N/A	N/A

2-jadvalda keltirilgan mamlakatlarning Top-10+ milliy brendlari ro'yxatidan ko'rinib turibdiki, boshqa mamlakatlardan sezilarli farq bilan dunyoning eng qimmatbaho brendlari bu AQSH va Xitoy brendlari hisoblanadi. Ularning milliy brendlarining umumiy qiymati o'rganilayotgan reytingdagi qolgan 98 mamlakat umumiy qiymatiga deyarli teng.

3-jadval

O'zbekiston milliy brendiga ta'sir etuvchi asosiy ko'rsatkichlar¹²

Yil	Brand Finance milliy brendlar indeksida mamlakat o'рни ¹³	Tovar va xizmatlar eksporti, mln. AQSH dollarida	To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar miqdori, mln. AQSH dollarida	Turistlar soni, mln kishi	Korrupsiyani qabul qilish indeksidagi (CIR ¹⁴)o'рни	CIR Indeksidagi balli
2017	65	15,010	1798,30	2,7	157	22
2018	71	17,340	624,69	5,34	158	23
2019	70	19,983	2316,48	6,7	153	25
2020	61	16,475	1728,25	1,5	146	26
2021	62	18,996	2280,29	1,9	140	28
2022	62	26,136	2654,44	5,2	126	31
2023	57	28,089	2143,82	6,6	121	33

Globalashuv va xalqaro raqobatning kuchayishi sharoitida milliy brending nafaqat rivojlangan, balki rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi strategik o'рни va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi borasidagi sa'y-harakatlarini inobatga olgan holda, bu masala mamlakatimiz uchun ham tobora

¹¹ Brand Finance ma'lumotlari. Nation Brands 193 2024-2015 | Brand Value Ranking League Table | Brandirectory <https://brandirectory.com/rankings/nation-ibrands/table>

¹² Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari

¹³ данные Brand Finance. Nation Brands 193 2023-2016 | Brand Value Ranking League Table | Brandirectory <https://brandirectory.com/rankings/nation-ibrands/table>

¹⁴ [2023 Corruption Perceptions Index: Explore the... - Transparency.org](https://www.transparency.org/en/corruption-perceptions-index)

dolzarb bo‘lib bormoqda.

O‘zbekiston milliy brendi Brand Finance xalqaro konsalting kompaniyasi baholash indeksiga yaqinda kiritildi. 2017-yildan 2024-yilgacha mamlakatning top-100 milliy brendlar reytingidagi o‘zgarish tendensiyalari tahlili (3-jadval) madaniy meros va tarix, iqtisodiy rivojlanish va chuqur tarkibiy islohotlar, IT sohasi, turizmni rivojlantirish, mamlakatning xalqaro tadbirlardagi ishtirokiga e’tibor qaratgan holda jadal rivojlanayotganidan dalolat beradi. Buning natijasida mamlakatimiz reytingdagi o‘rnini 2018-yildagi 71-o‘rindan 2024-yilda 57-o‘ringa ko‘tarishga erishdi¹⁵. O‘zbekiston hukumati 2017-yil boshidan buyon keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Bular qatoriga investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va soliq stavkalarini pasaytirish, ro‘yxatdan o‘tish, savdo tartib-qoidalari va biznes yuritish shartlarini soddalashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashadigan soliq imtiyozlari va preferensiyalarni taqdim etish kabi chora-tadbirlar kiradi. Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mamlakat barqaror iqtisodiy o‘shishga erishdi (COVID-19 pandemiyasi davrida biroz og‘ish bo‘lsada), jumladan, iqtisodiy faollikning o‘shishi, xorijiy davlatlar bilan savdo hamkorlik aloqalarining kengayishi va aholi farovonligining yaxshilanishi kuzatilmoqda.

O‘zbekiston xalqaro maydonda raqobatbardosh bo‘ladigan o‘ziga xos pozitsiyani topishi zarur. Mamlakat boy madaniyatga, tarixiy merosga, istiqbolli iqtisodiyot tarmoqlariga ega, biroq bu hali butun dunyoda tan olinadigan kuchli brendga aylanmagan.

Iqtisodiyotning eng istiqbolli va qo‘llab-quvvatlashni talab qiladigan sohalarini aniqlash maqsadida BCG matritsasi foydalandik (4-jadval). Marketing sohasida strategik tahlil va rejalashtirish vositasi sifatida foydalaniladigan Boston konsalting guruhi (BCG) matritsasi milliy iqtisodiyot tarmoqlarini ikkita asosiy ko‘rsatkich bo‘yicha tasniflash imkonini beradi: bozorning o‘shish sur‘atlari va bozor ulushi. Ushbu yondashuv strategik boshqaruvda aktivlar portfelini optimallashtirish va investitsiya kiritishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda keng qo‘llaniladi.

4-jadval

O‘zbekiston milliy brendini shakllantirishda BCG matritsasi¹⁶

	Bozorning yuqori o‘shishi	Bozorning past o‘shishi
Bozorning yuqori ulushi	<p><u>Yulduzlar</u></p> <ul style="list-style-type: none"> ➤ To‘qimachilik va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti ➤ Turizm (tarixiy, ziyorat turizmi, gastroturizm, va h.) 	<p><u>Sog‘in sigirlar</u></p> <ul style="list-style-type: none"> ➤ Tog‘-kon sanoati (oltin, uran, gaz) ➤ An‘anaviy hunarmandchilik (kulolchilik, so‘zana tikish, gilam to‘q‘ish)
Bozorning past ulushi	<p><u>Qiyin bolalar</u></p> <ul style="list-style-type: none"> ➤ IT va innovatsiyalar ➤ Ijodiy sohalar (moda, kino, dizayn) 	<p><u>Itlar</u></p> <ul style="list-style-type: none"> ➤ Mashinasozlik ➤ Aviatashuvlar (Uzbekistan Airways)

¹⁵ Brend qiymati haqida ochiq manbalarda ma’lumot topilmadi.

¹⁶ Manba: muallif ishlanmasi

1. “Yulduzlar” - bozorning yuqori o‘sishi va yuqori ulushiga ega bo‘lgan sohalari. Bu toifaga qishloq xo‘jaligi va to‘qimachilik mahsulotlari eksporti hamda turizm sohasini kiritish mumkin. O‘zbekiston paxta va to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakat MDH, Xitoy va Yevropa Ittifoqi davlatlarini qamrab olgan eksport bozorlarini faol kengaytirmoqda. Bundan tashqari, mahalliy quritilgan va yangi mevalar (o‘rik, mayiz, gilos, anor) tashqi bozorlarda katta talabga ega. Ekologik toza mahsulotlarga talab ortib borayotgan sharoitda, sifatini tasdiqlovchi sertifikatlariga ega mahalliy qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini “ekologik toza” va “O‘zbekistonning organik mahsulotlari” yorliqlari ostida ilgari surish eksportning o‘shishiga va O‘zbekistonning xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Turizm, jumladan, tarixiy, ziyorat va gastronomik turizm mamlakatning eng jozibador va noyob raqobatbardosh ustunliklaridan biridir. Viza rejimining joriy etilishi va infratuzilmaga kiritilgan investitsiyalar tufayli mamlakatga sayyohlar oqimining sezilarli darajada o‘shishi kuzatilmoqda (3-jadval). Samarqand, Xiva va Buxora kabi tarixiy shaharlar tobora ko‘proq xorijiy sayyohlarni o‘ziga jalb etmoqda, Toshkent esa mamlakatning ishbilarmonlik markazi sifatida e‘tiborni tortmoqda.

Mamlakatning jahon bozoridagi mavqeini mustahkamlash uchun “yulduzlar”ga sarmoya kiritish, ya’ni turizm va eng istiqbolli eksport tarmoqlarini faol targ‘ib qilish zarur. Shu bilan birga, xom ashyoni eksport qilish o‘rniga tayyor mahsulotlar: tayyor to‘qimachilik mahsulotlari, kiyim-kechak, texnik matolar va boshqalarni ishlab chiqarishni ko‘paytirish va takomillashtirish lozim. Mahsulotlar sifatini oshirish uchun qishloq xo‘jaligiga innovatsiyalarni (organik dehqonchilik, mahsulotlarni qayta ishlash) joriy etish, eksportchilar uchun “yagona darcha” tizimini yaratish orqali eksport tartib-qoidalarini soddalashtirish, shuningdek, zamonaviy brending va qadoqlash usullaridan foydalanish orqali mahalliy mahsulotlarning jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish juda foydali va samarali bo‘lishi mumkin.

2. “Sog‘in sigirlar” - bozor ulushi yuqori, lekin o‘shishi past bo‘lgan tarmoqlar. Ushbu toifaga tog‘-kon sanoati (oltin, uran, gaz va boshqalar) hamda an’anaviy madaniyat va hunarmandchilikni kiritish mumkin. O‘zbekistonning tasdiqlangan foydali qazilmalari zahiralari \$1 trln.ga baholanmoqda¹⁷. Oltin va uran eksportidan keladigan barqaror daromadlar mamlakatga barqaror valyuta oqimini ta’minlaydi. Davlat statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda oltin eksportidan tushgan daromad taxminan \$7,48 mlrd.ni tashkil etdi¹⁸.

O‘zbekiston o‘zining an’anaviy madaniyati va hunarmandchiligi, jumladan, milliy matolari (ikat, xonatlas, adras, ipak), kulolchiligi, gilamlari, so‘zanalari, zargarlik buyumlari va boshqalar bilan ham mashhur. Bu soha yuqori o‘shishni ko‘rsatmasa-da, barqaror daromad va mamlakatning madaniy merosiga qiziqishni ta’minlaydi. “Sog‘in sigirlar”ning afzalligi shundaki, ushbu sohalardan olingan daromadlar innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va yangi yo‘nalishlarni qo‘llab-quvvatlash uchun ishlatilishi mumkin.

¹⁷ Заявление Президента Шавката Мирзиёева на видеоселекторном совещание по итогам проделанной в 2024 году работы и основным планам на 2025 год. 20.12.2024г.

¹⁸ Данные Агентства по статистике Республики Узбекистан за январь-декабрь 2024 г.

3. “Qiyin bolalar” - bozorning o‘sishi yuqori, lekin ulushi past bo‘lgan tarmoqlar. Bular qatoriga IT va innovatsiya sohalari, shuningdek, kreativ sanoatni kiritish mumkin. O‘zbekistonda axborot texnologiyalari sohasi faol rivojlanayotgan bo‘lsa-da, uning xalqaro bozordagi ulushi sezilarli darajada emas. Hukumatning IT-parklar, texnopolislar tashkil etish va investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha tashabbuslari ushbu sohani rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan.

Ijodiy sohalar, masalan, moda, kino, dizayn va boshqalar yaxshi salohiyatga ega, ammo bu sohalarning xalqaro miqyosdagi ishtiroki juda zaif va ular hozircha jahon bozorida sezilarli o‘rin egallamayapti. Investitsiyalarni jalb qilish, strategik hamkorlik, shuningdek, yosh dizaynerlar va kino ijodkorlarini qo‘llab-quvvatlash ularning xalqaro e‘tirofini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

4. “Itlar” - past o‘shish va past bozor ulushiga ega bo‘lgan sohalar. Ularga mashinasozlik va aviatashuv sohasini kiritish mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, jahon mashinasozligida rivojlangan sanoat bazasi va yuqori texnologiyalarga ega bo‘lgan Xitoy, Germaniya, AQSH va boshqa mamlakatlar yetakchilik qilmoqda. Mahalliy mahsulotlar sifati, texnologik jihatlari, innovatsionligi va raqobatbardoshligi bo‘yicha ortda qolmoqda, butlovchi qismlar (dvigatellar, elektronika) importiga yuqori bog‘liqlik esa mashinasozlik sanoatining eksport imkoniyatlarini cheklamoqda. Asosiy korxonalar, masalan, UzAuto Motors Markaziy Osiyodagi eng yirik avtomobil ishlab chiqaruvchilardan biri bo‘lsa-da, asosan ichki bozor uchun ishlaydi, eksport tarkibi esa zaif bo‘lib qolmoqda, uning asosiy ulushi MDH bozorlariga to‘g‘ri keladi.

Uzbekistan Airways yetakchilik qilayotgan, 8 ta milliy kompaniya tomonidan taqdim etilayotgan aviaxizmatlar ham jahon aviakompaniyalari bozoridan sezilarli darajada ortda qolmoqda. Aviatsiyaning rivojlanish sur‘atlari G‘arb va Osiyodagi raqobatchilardan, xususan, Turkiya, Xitoy va Singapurdan ortda qolmoqda. Uzbekistan Airways xalqaro yo‘nalishlarda cheklangan talabga, kichik ichki bozorga, aholining past xarid qobiliyatiga duch kelmoqda, bu esa yuqori tarifli xizmatlarni taklif qilish chog‘ida kompaniyaning yo‘lovchi tashishish xizmatlarining rivojlanishini cheklaydi. Uzbekistan Airways’ning xalqaro bozordagi ulushi uncha katta emas, kompaniya Osiyoning yetakchi aviakompaniyalari qatoriga kirmaydi, xalqaro yo‘nalishlarda asosiy raqobatchilari - Turkish Airlines, Emirates, Qatar Airways va boshqalar. Shu bilan birga, Air Astana, FlyDubai kabi arzon aviakompaniyalar yanada raqobatbardosh tariflarni taklif qilib, O‘zbekistonlik yo‘lovchilarni o‘ziga jalb qilmoqda. Kompaniya Yevropa, Shimoliy Amerika, Janubi-Sharqiy Osiyoda yetarlicha taqdim qilinmagan.

Aviatsiya sektori raqobatbardoshlik oshirilsa, tariflar qayta ko‘rib chiqilsa, xizmat ko‘rsatish sifati yaxshilansa, yo‘nalishlar tarmog‘i kengaytirilsa va arzon yo‘nalishlar rivojlantirilsagina “itlar” toifasidan chiqishi mumkin. Aks holda, tarmoq qayta tashkil etish, modernizatsiya qilish yoki maqsadli yo‘nalishlarni izlashni talab qiladigan “itlar” toifasida qolaveradi. Shunday qilib, BCG matritsasi O‘zbekistonning raqobatbardosh ustunliklarini aniqlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va jahon hamjamiyatida mamlakat brendini mustahkamlash uchun strategik yo‘nalishlarni belgilash imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston milliy brendini boshqarish modelini taklif etamiz (2-rasm).

Milliy brendning salohiyatini baholash (SB_{MB}) mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini baholash (ya'ni makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, ijtimoiy rivojlanish va infratuzilma holati), mahalliy brendlarning raqobatbardoshligini baholash hamda mamlakatning investitsion va turistik jozibadorligini aniqlash asosida amalga oshiriladi. Bunda ikkilamchi axborotlar, jumladan makroiqtisodiy statistikadan foydalanish yuqori natija bermaydi, shuning uchun asosiy e'tiborni mahalliy aholi, raqobat muhiti va xorijiy sayyohlar hamda investorlar ongida shakllangan tasavvurlarga qaratish tavsiya etiladi.


O'zbekiston milliy brendining identifikatsiyasini shakllantirishda (ISH_{MB}) brend platformasini yaratishga, aholi va investitorlar ongida vizual identifikatorlar yaratishga va marketing vositalari asosida kommunikatsiya identifikatsiyalar shakllantirishga alohida ahamiyat qaratiladi. Brend platformasi iqtisodiy mafkura - mamlakatni mintaqaviy, keyin esa xalqaro hamjamiyatda "sanoat markazi"ga aylantirish, ishlab chiqarishning jahon sifat standartlariga muvofiqligiga erishish, ijtimoiy mafkura - aholining yuksak ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish, investitsion mafkura- sarmoyadorlar uchun jozibador bo'lgan dunyodagi yetakchi davlatlar qatoriga kirish hamda turistik mafkura - eng jozibador sayyohlik yo'nalishlaridan biri sifatida tanilish asosida tashkil etiladi.

Milliy brendni targ'ib qilishda (TQ_{MB}) hududiy marketingning integratsiyalashgan kommunikatsiya strategiyalaridan foydalanish taqozo etiladi.

Bunda marketing MIKS, benchmarking, yashil marketing strategiyalaridan foydalanish, jahondagi texnoparklar, texnopolislar EIZlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish va ulardagi tartib-tamoyillarni, boshqaruv usullarini o'zlashtirish, mahalliy eksport brendlarni targ'ib qilish asosiy marketing konsepsiyalar sifatida qaralishi lozim. Bunda mamlakatdagi turizm, investitsiya va ishbilarmonlik muhiti muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda amalga oshirilayotgan barcha loyihalarda ekologiya, inson xavfsizligi va hududiy xavfsizlik talablarini belgilab berilishi lozim. Milliy brendni boshqarishda asosiy missiya belgilanadi va shu missiyani amalga oshirishga qaratilgan strategik maqsadlar belgilanadi. Strategik maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan vazifalar asosida yo'l xaritalari ishlab chiqiladi. Bunda strategik vazifalarning samarali ijrosi doimiy monitoring qilish maqsadga muvofiq.

Milliy brendning natijalari monitoringi (M_{MB}) 5 yo'nalishda amalga oshiriladi: mahalliy aholi (mamlakat aholisi ongida shakllangan ichki imidj, shu yurtga mansublikdan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish), idoraviy tuzilmalar, investorlar, sayyohlar, eksport qiluvchi korxonalar.

Milliy brend samaradorligini baholash mezonlari quyidagilardan iborat bo'ladi: mamlakat brendining tanilishi, investitsiyalar va mahalliy tovarlar eksportining o'sishi, sayyohlar oqimining ko'payishi, iste'molchilarning sodiqligi, mamlakat mahsulotining sifati, brendi bilan aloqa qilish natijasida iste'molchilarda shakllangan assotsiatsiyalar va h. Ular doimiy ravishda kuzatib borilishi va brend imidjining eng muhim tarkibiy qismlarini aks ettirishi kerak.



2-rasm. O'zbekiston milliy brendini boshqarish modeli¹⁹

¹⁹ Muallif ishlanmasi

Mamlakat brendining aholi tomonidan qabul qilinishiga alohida e'tibor qaratish kerak, chunki milliy brend mamlakatda yashovchi odamlarda aks-sado bermasa, brendning muvaffaqiyatiga uning tashqarisida umid qilib bo'lmaydi. Mamlakatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy manfaatlari bilan bir qatorda, jahon xo'jaligi mamlakatlari va geosiyosatida hamkorlik munosabatlari va mamlakatni idrok etishni yaxshilashga hissa qo'shadigan yagona maqsadli "milliy brending" strategiyasini yaratish zarur.

O'zbekistonni postsovet, agrar davlat sifatida talqin qiladigan qoliplashgan qarashlardan voz kechib, tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan, ulkan iqtisodiy salohiyat va bir qator raqobatbardosh ustunliklarga ega bo'lgan sanoatlashgan davlat tasviriga o'tish lozim. Uzoq muddatli istiqbolda O'zbekistonning ijobiy qiyofasini shakllantirish uchun milliy brending kampaniyasini o'tkazish zarur. Bu kampaniya nafaqat tashqi manfaatdor tomonlar nazarida mamlakat tasavvurini yaxshilashga, balki uning o'z aholisi tomonidan idrok etilishini yaxshilashga ham qaratilishi kerak. Shuningdek, turizm, eksport brendlari, ichki va tashqi siyosat, biznes va investitsiya muhiti, madaniyat va an'analar orqali mamlakatning jahondagi mavqeini mustahkamlash lozim. Zarur hollarda PR loyihalarini amalga oshirish uchun jahon ekspertlari va professional tuzilmalarni jalb etish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston boy madaniyat, tarixiy meros va iqtisodiyotning istiqbolli tarmoqlariga ega, biroq bu hali butun dunyoda tan olinadigan kuchli brendga aylanmagan. Eng dolzarb muammolardan biri marketing va reklama kampaniyalariga, shuningdek, jahon ommaviy axborot vositalari, xalqaro madaniyat va sport tashkilotlari bilan hamkorlik tadbirlariga yetarli mablag' ajratilmaganidir. Bundan tashqari, zamonaviy brending ko'plab xorijiy mamlakatlar allaqachon faol foydalanayotgan raqamli makonda mamlakatning faol ishtirokini talab qiladi. Ijtimoiy tarmoqlar, YouTube, Instagram, X, TikTok va boshqa shunga o'xshash video kontent platformalaridan foydalanish, mahalliy brendlarni ommalashtirish uchun xalqaro ta'sir o'tkazuvchilar va boshqa raqamli resurslar bilan hamkorlik qilish brendingning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanishi lozim.

Dissertatsiyaning **"Milliy brendni ilgari surish va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari"** nomli uchinchi bobida O'zbekiston milliy brendining ekonometrik tahlili va istiqboli o'rganilgan, O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish va mamlakat milliy brendini ilgari surishda eksportni rag'batlantirish masalalari ko'rib chiqilgan, shuningdek, O'zbekistonning milliy brendingini xalqaro maydonda samaradorligini oshirish yo'llari tahlil etilgan.

Xalqaro miqyosda mamlakat brendini ilgari surishning samarali yo'nalishlaridan biri bu — marketing strategiyalarini zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishdir. Jumladan, yirik xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda ishtirok etish, onlayn savdo platformalarini rivojlantirish, hamda elektron tijorat mexanizmlaridan keng foydalanish orqali milliy mahsulotlar va xizmatlar xorijiy auditoriyaga samarali tarzda taqdim etilmoqda.

Yarmarkalar va xalqaro ko'rgazmalar orqali milliy brendni targ'ib qilish davlatning xalqaro imijini shakllantirish va eksport salohiyatini kengaytirishda muhim strategik vosita hisoblanadi. Bunday tadbirlar mahalliy tovar va xizmatlarni jahon hamjamiyatiga to'g'ridan-to'g'ri namoyon etish, ularning fizik xususiyatlarini

to'g'ridan-to'g'ri baholash imkonini beradi. Ayniqsa, bevosita muloqot va tajriba almashinuvi orqali xorijiy hamkorlar bilan ishonchli aloqalarni o'rnatish imkoniyati paydo bo'ladi. Shuningdek, yarmarkalar va ko'rgazmalar auditoriyaga mamlakat mahsulotlari va brendini nafaqat vizual, balki sensor (taktil, bevosita his etiladigan) darajada qabul qilish sharoitini yaratadi. Bu esa mahsulot va xizmatlarga nisbatan emotsional va ijobiy munosabat shakllantirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, bunday tadbirlar milliy brendning taniqliligi, ishonch darajasi va raqobatbardoshligini oshirishda yuqori marketing qiymatiga ega bo'ladi.

Bugungi raqamli iqtisodiyot davrida mamlakat brendini faqat an'anaviy vositalar bilan emas, balki interaktiv va raqamli platforma muhitida ham targ'ib qilish talab etiladi. Onlayn platformalar orqali milliy brendni ilgari surish – mamlakatning tovar va xizmatlari haqidagi axborotni jahon miqyosida keng tarqatish, ularning taniqliligini oshirish va xorijiy iste'molchilar orasida ishonch uyg'otish imkonini yaratadi. Bu jarayonda raqamli marketing, SEO (search engine optimization), targetlash, kontent marketing, influencer marketing kabi usullardan foydalanish imkoniyati orqali milliy brendning global ta'sir doirasi kengayadi. Shuningdek, raqamli platformalar orqali mamlakatning mahsulotlarini jahon bozorida sotish uchun o'zaro integratsiyalangan, ko'p tilli, adaptiv va yuklab olinishi oson bo'lgan interfeyslar, on-site feedback, real-time support kabi mexanizmlar joriy etilishi, mijoz tajribasini (customer experience) yaxshilaydi va milliy brendga nisbatan ijobiy munosabat shakllantiradi. Bu usullar milliy brendning tashqi bozorlarga tez va samarali chiqishi uchun zarur bo'lgan raqamli internatsionallashuv (digital internationalization) strategiyasini shakllantiradi.

Jahon bozorida raqobat kuchayib borayotgan hozirgi davrda milliy mahsulot va xizmatlarni tashqi bozorlarga samarali chiqarishda elektron tijorat (e-commerce) vositalaridan foydalanish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Elektron tijorat nafaqat savdo hajmini oshiradi, balki mamlakatning milliy brendini global auditoriyaga yetkazish, tanishtirish va qadriyatlarini to'g'ridan-to'g'ri yetkazish imkoniyatini beradi.

Raqamli platforma muhitida milliy brendlarni ilgari surish — mahsulot bilan bog'liq vizual, axborotli va interaktiv kontentlarni keng tarqatish, mijoz bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni ta'minlash va ijtimoiy dalillar (sharhlar, baholar) orqali ishonch uyg'otishni anglatadi. Shu orqali milliy brendning raqobatbardoshligi, ishonch darajasi va dunyoqarashdagi obro'si orttiriladi.

Elektron tijorat milliy brendlar uchun to'g'ridan-to'g'ri iste'molchiga chiqish (D2C), kontent marketing, SEO, targetlash va retargeting kabi usullardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi. Bu esa brendni har bir bozor va xaridor guruhiga moslashtirishga, personallashtirilgan muloqotni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, elektron tijorat platformalari orqali mamlakat mahsulotlari haqidagi ma'lumotlarni ko'p tilli, adaptiv va mobil qurilmalarga mos shaklda taqdim etish, real-time muloqot, mijoz tajribasini (customer experience) kuzatish orqali milliy brendga nisbatan ijobiy munosabat shakllantiriladi. Bunday yondashuv milliy brendingning raqamli istiqbolini kengaytiradi va davlatning xalqaro imijini mustahkamlaydi. Milliy brendlarni xalqaro bozorlarda ilgari surishda elektron tijoratdan samarali foydalanishning ahamiyati esa quyidagilarda namoyon bo'ladi: mamlakat brendlarni masofadan turib sotish imkoni beradi, eksport imkoniyatlarini

kengaytiradi va raqamli raqobatbardoshlikni oshiradi.

Umumiy holda 3 ta yoʻnalish boʻyicha jami 19 ta marketing vositalari Oʻzbekistonda milliy brendlar orqali mamlakatning ijobiy qiyofasini shakllantirishning yagona milliy mafkurasiga mos keladigan “Made in Uzbekistan” kampaniyasi va mamlakatning milliy brendi konsepsiyasini ilgari surishda samarali vositalar sifatida qabul qilish mumkin. Biroq mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy holat va mavjud infrtauzilmani inobatga olgan holda eng samarali marketing vositalarini aniqlash talab etiladi. Buning uchun avvalo quyidagi fomuladan foydalaniladi:

$$S = \sum_{i=1}^n w_i * x_i - \max \quad (1.1)$$

Bu yerda,

S - umumiy marketing samaradorligi (brendning xalqaro bozordagi tanilish darajasi) maksimalga intiladi;

x_i – har bir marketing vositasidan foydalanish imkoniyati (ekspert yoki statistik maʼlumotlar asosida aniqlanadi);

w_i – har bir vositaning taʼsir samarasi (normallashtirilgan qiymatlar asosida aniqlanadi)

n – marketing vositalari soni;

Har bir vositaning samara taʼsirini hisoblash marketing vositalari sonidan kelib chiqadi va umumiy koʻrinishda formulani quyidagi koʻrinishda ifodalash mumkin:

$$S = w_1 * TBT_{MB} + w_2 * OP_{MB} + w_3 * ET_{MB} \quad (1.2)$$

Bu yerda,

TBT_{MB} – yarmarkalar, mintaqaviy va xalqaro koʻrgazmalarda milliy tovar brendlarini targʻib qilishning marketing vositalari;

OP_{MB} – jahon bozorlarida sotish uchun onlayn platformalarni tashkil etishning marketing vositalari;

ET_{MB} – elektron tijoratdan foydalanishning marketing vositalari;

Milliy brendi konsepsiyasini ilgari surishda foydalaniladigan marketing vositalarining umumiy samaradorlikka taʼsiri turlichaligini inobatga olgan holda ularni normallashtirish talab etiladi. Shunga koʻra taʼsir samarasi marketing vositalari soniga nisbatan 1 ga nomallashtirib quyidagilar aniqlanadi:

5-jadval

Normallashtirilgan taʼsir samaralarni hisoblash²⁰

Yoʻnalish	Marketing vositalari soni, n	Har bir vosita uchun taʼsir samaralari, w_n
mintaqaviy va xalqaro koʻrgazmalarda milliy tovar brendlarini targʻib qilish (TBT_{MB})	8	8/19=0,42
jahon bozorlarida sotish uchun onlayn platformalarni tashkil etish (OP_{MB})	6	6/19=0,32
elektron tijoratdan (ET_{MB})	5	5/19=0,26
Jami	19	100

Milliy brendlarni xalqaro bozorlarda ilgari surishda normallashtirilgan taʼsir samaralarni inobatga olgan holda umumiy marketing samaradorlik fomulasini quyidagicha ifodalaniadi:

$$S = 0,42 * TBT_{MB} + 0,32 * OP_{MB} + 0,26 * ET_{MB} \quad (1.3)$$

²⁰ Manba: Exell dasturi asosida muallif ishlanmasi

Yuqorida keltirilgan metodologik yondashuv asosida har bir marketing vositasidan foydalanish imkoniyati ekspert baholash asosida aniqlanadi. Bunda jami 5 ta milliy brendlarni xalqaro bozorlarda o‘ziga xos bo‘lgan korxonalar menejerlaridan iborat ekspertlar jalb qilingan.

Milliy brendlarni xalqaro bozorlarda ilgari surish bo‘yicha cheklovlarni inobatga olgan holda ekspertlar tomonidan aniqlangan 19 ta marketing vositalaridan foydalanish bo‘yicha imkoniyatlar 6-jadvalda keltirilgan.

6-jadval

Milliy brendlarni xalqaro bozorlarda ilgari surish bo‘yicha marketing vositasidan foydalanish imkoniyatini ekspert baholash natijalari²¹

Marketing Dastagi	Expert_1	Expert_2	Expert_3	Expert_4	Expert_5	o‘rtacha
Milliy brend pavilyonlari	8	9	7	9	9	8,4
Interaktiv taqdimotlar (AR/VR)	3	5	6	5	6	5,0
Brend ambassadorlari	5	7	7	5	4	5,6
Promo materiallar	8	9	8	6	8	7,8
Live marketing voqealari	5	4	3	5	3	4,0
Madaniyat zonasi	9	8	5	5	7	6,8
Brendingli sovg‘alar	7	6	8	8	9	7,6
Real-time demo	5	9	4	5	8	6,2
TBT_{MB} o‘rtacha qiymati						6,4
Milliy brend portali	5	7	6	7	9	6,8
Multilingual dizayn	5	6	5	5	8	5,8
SEO/SEM optimizatsiyasi	8	5	6	5	6	6,0
Video-portfoliolar	9	6	8	8	8	7,8
Influencer marketing	8	9	7	8	5	7,4
Personalizatsiyalangan tavsiyalar	5	6	8	6	8	6,6
OP_{MB} o‘rtacha qiymati						6,7
Xalqaro to‘lov tizimlari	8	8	6	8	6	7,2
Logistika xizmatlari	9	6	6	8	6	7,0
Social proof (izoh, baho)	6	9	8	9	9	8,2
Email marketing, push notifications	8	5	9	9	9	8,0
Chegirma, cashback tizimlari	6	9	6	5	8	6,8
ET_{MB} o‘rtacha qiymati						7,4

Amalga oshirilgan ekspert tahlil natijalariga ko‘ra milliy brendlarni xalqaro bozorlarda ilgari surishda normallashtirilgan ta’sir samaralarni inobatga olgan holda umumiy marketing samaradorligini (1.3) formula asosida hisoblanadi:

$$S = 0,42 * 6,4 + 0,32 * 6,7 + 0,26 * 7,4 = 6,756 \quad (1.3)$$

Amalga oshirilgan tahlil natijalaridan ma’lum bo‘ladiki, brend targ‘ibotining umumiy samarasi 0–10 shkalada o‘rtachadan yuqori natijani qayd etmoqda.

²¹ Manba: Exell dasturi asosida muallif ishlanmasi

Amalga oshirilgan tahlil natijalariga ko‘ra marketingning an’anaviy vositalarni raqamli elementlar bilan integratsiya qilish brendarni xalqaro bozorlarda ilgari surishning eng samarali vositasi sifatida qaralishi lozim. Past baholangan dastaklar orasida promo materiallar, brendingli sovg‘alar, va live marketing voqealari kabi an’anaviy usullar mavjud. Bularning samarasi nisbatan pasaygani — jahon marketing tendensiyalarida texnologiyaga asoslangan vizual va interaktiv targ‘ibot vositalarining ustun kelayotgani bilan bog‘liq. Biroq mamlakat brendini targ‘ib qilishda buklet va broshyuralarni QR-kodli interaktiv kontent bilan boyitish (video, AR elementlar), sovg‘alarni foydali, zamonaviy va yodda qoladigan texnologik jihatlar bilan ta‘minlash (masalan, brendingli USB, ekologik mahsulotlar), live marketing tadbirlarini professional ssenariy asosida tashkil etish va ijtimoiy tarmoqlarda live coverage ta‘minlash muhim yo‘nalish bo‘lishi lozim.

Tahlil natijalari brend ambassadorlarining samarasi past baholanishi — ularning to‘g‘ri tanlanmasligi, ommabop emasligi yoki ijtimoiy ta‘sir darajasining pastligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. E-mail marketing va “push notifications” vositalarining past baholanishi, aksar hollarda, ularning avtomatlashmaganligi, mazmunsizligi, yoki personallashtirilmaganligi bilan bog‘liq. Shunga ko‘ra E-mail xabarlarini avtomatik triggerlar asosida (welcome, cart abandonment, discount offers) yuborish bo‘yicha strategiyalar belgilash maqsadga muvofiqdir.

Past baholangan vositalarni tahlil qilishdan ma‘lum bo‘ladiki, ular asosan axborot tarqatish va brendni ko‘rsatishga yo‘naltirilgan. Holbuki, hozirgi global bozorda bunday passiv usullar emas, balki “customer experience” yaratish, hissiy taassurot qoldirish va emotional branding strategiyalari ustun kelmoqda. Har bir marketing dastakka emotion + interactivity + visual impact komponentlarini joriy etish lozim. Mahsulot yoki xizmatni “taqdim qilish” emas, “tajriba qilish” muhitini yaratishga e‘tibor qaratish lozim.

Past samaradorlikka ega dastaklarning umumiy xususiyati — ularning an’anaviy, statik, yoki targetsiz bo‘lishidir. Ularning samaradorligini oshirish uchun: innovatsion texnologiyalar (AR, push, trigger email), kontent personalizatsiyasi, interaktiv tajriba muhiti kabi yondashuvlar joriy etilishi zarur.

Tadqiqotimiz davomida "milliy brend"ni shakllantirishning ixtisoslashtirilgan modeli ishlab chiqildi hamda modelga kiritilgan o‘zgaruvchilar asosida O‘zbekistonning “Top Nation Brands” reytingidagi o‘rni 2040-yilgacha prognoz qilindi. Tadqiqot Dineri, E., et al. tadqiqot metodologiyasiga asoslangan²², ammo ko‘p omilli regressiya modelidan foydalanilgan.

$$Y_t = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \dots + \beta_k X_{kt} + \epsilon_t \quad (1)$$

Bu yerda:

Y_t – bog‘liq o‘zgaruvchi;

$X_{1t}, X_{2t}, \dots, X_{kt}$ – mustaqil o‘zgaruvchi;

β_0 – ozod had;

$\beta_1, \beta_2, \dots, \beta_k$ – noma‘lum parametrlar;

ϵ_t – model qoldiqlari

²² Dineri, E., Bilginer Özsaatçı, F. G., Kılıç, Y., Çiğdem, Ş., & Sayar, G. (2024). Unveiling the Power of Nation Branding: Exploring the Impact of Economic Factors on Global Image Perception. Sustainability, 16(16), 6950.

7-jadval

Model o'zgaruvchilarining umumiy tasnifi²³

O'zgaruvchilar nomi	O'zgaruvchilarning tasnifi	Kuzatuvlar soni	Manba	Belgi
Place in Brand Finance Rating	Brand Finance milliy brendlar indeksida mamlakat o'rni	8	Brand Finance (2024) brandirectory.com	pl_brand
Growth in % compared to the previous year	O'tgan yilga nisbatan o'zgarishi (%)	16	O'zbekiston Respublikasi Statistika Agentligi	gr_exp
Growth in % compared to the previous year	O'tgan yilga nisbatan o'zgarishi (%)	14	O'zbekiston Respublikasi Statistika Agentligi	gr_FDI
Growth in % compared to the previous year	O'tgan yilga nisbatan o'zgarishi (%)	16	O'zbekiston Respublikasi turizm qo'mitasi ma'lumotlari	gr_visitors
Perception of Corruption Score	O'zbekistonning Korrupsiyani qabul qilish indeksidagi balli	15	Transparency international	PCI_score

Tadqiqot gipotezasiga ko'ra, tanlangan o'zgaruvchilar milliy brendning eng muhim determinantlari hisoblanadi. 8-jadvalda modelning regression tahlili keltirilgan.

8-jadval

Regression tahlil natijalari²⁴

pl_brand	Coef.	St.Err.	t-value	P-value	[95% Conf Interval]	Sig
gr_exp	-.068	.173	-0.39	.072	-.619 .484	*
gr_FDI	-.178	.102	1.75	.017	-.147 .503	**
gr_visitors	-.015	.025	0.58	.06	-.066 .095	*
PCI_score	.155	.51	-0.30	.078	1.779 1.469	*
Constant	49.327	17.687	2.79	.006	-6.961 105.614	***
Mean dependent var		63.125	SD dependent var		5.276	
R-squared		0.688	Number of obs		8	
F-test		0.041	Prob > F		0.355	
Akaike crit. (AIC)		48.936	Bayesian crit. (BIC)		49.333	

*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$

Regression tahlil natijalaridan ko'rish mumkinki, modelning determinatsiya koeffitsiyenti 0.68 foizni anglatadi. Bu esa mustaqil o'zgaruvchilar bog'liq o'zgaruvchini 68 foizini izohlashini anglatadi (68/100). F-test natijalari esa 0.04 foizni ko'rsatmoqda, ushbu ko'rsatkichni 5 foizdan kichik ekanligi, modelning statistik jihatdan to'g'ri ekanligini ko'rsatadi. Interpretatsion tahlilga keladigan bo'lsak, eksport, xorijiy investitsiyalar va mamlakatga tashrif buyuruvchilar sonining o'sishi ko'rsatkichlarining manfiy ishorasi, O'zbekistonning "milliy brend" reytingidagi pog'onasini yaxshilanishiga hissa qo'shishini anglatadi. (joriy pog'onadan 1 ga qanchalik yaqinlashsa, ijobiylik kasb etadi). Korrupsiya reytingining musbat bog'likligi esa "milliy brend" reytingiga salbiy ta'sir etishini

²³ Muallif ishlanmasi

²⁴ Stata dasturi yordamida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

anglatadi. Umumiy qilib aytganda, tadqiqotimizda O‘zbekistonda eksport, xorijiy investitsiyalar va mamlakatga tashrif buyuruvchi turistlar sonining o‘shishi “milliy brend” reytingiga ijobiy ta’sir qilishini, korrupsiya reytingining yuqorilashi esa O‘zbekistonning “milliy brend” reytingidagi pog‘onasining salbiylashishiga olib kelishi o‘z isbotini topdi.

Model natijalarining ishonchliligi, undagi o‘zgaruvchilar orasidagi ko‘p tarmoqli kollinearlik va model qoldiqlarining normal taqsimotiga ham bog‘liq. Buni aniqlashda “VIF” va “Breusch-Pagan” testlaridan foydalanamiz (9-jadval).

9-jadval

“VIF” testi natijalari²⁵		
	VIF	1/VIF
gr_exp	2.206	.453
gr_FDI	2.071	.483
PCI_score	1.654	.604
gr_visitors	1.312	.762
Mean VIF	1.811	.

Qoidaga ko‘ra, agar VIF testining o‘rtacha natijalari 10 foizdan oshsa, bu multikollinearlik muammosi mavjudligini ko‘rsatadi. Ushbu tahlil test natijalariga ko‘ra, bu ko‘rsatkich 2 foizdan past (1.811) bo‘lib, o‘z navbatida o‘zgaruvchilarning multikollinear emasligini tasdiqlaydi. 9-jadvalda geteroskedastiklik muammosi mavjudligini tekshirish uchun “Breusch-Pagan” testi natijalarining tahlili keltirilgan. Taqdim etilgan modeldagi “Breusch-Pagan” testi natijalari 5 foizdan yuqori (0,5775) bo‘lib, bu geteroskedastiklik yo‘qligini ko‘rsatadi hamda modelning gomoskedastikligi va statistik muvofiqligini isbotlaydi.

10-jadval

“Breusch-Pagan” testi natijalari²⁶	
Breusch-Pagan / Cook-Weisberg test for heteroskedasticity	
Ho: Constant variance	
Variables: fitted values of pl_brand	
chi2(1)	= 0.31
Prob > chi2	= 0.5775

Ushbu model o‘zgaruvchilaridan foydalanib, VAR modeli yordamida O‘zbekiston milliy brendi pozitsiyasining uzoq muddatli prognozi ishlab chiqildi. Ushbu modelning standart ko‘rinishi quyidagicha:

$$y_t = u + \sum_{i=1}^p b_{1i}y_{t-1} + \sum_{i=1}^p b_{2i}x_{t-1} + v_t \quad (2)$$

Bu yerda:

y_t - bog‘liq o‘zgaruvchi vektori; u - ozod had vektori;

x_t - mustaqil o‘zgaruvchilar vektori; v_t - standart xatoliklar vektori.

²⁵ Stata dasturi yordamida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

²⁶ Stata dasturi yordamida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Prognoz natijalari 11-jadvalda keltirilgan.

11-jadval

Prognoz natijalarining raqamli ifodasi²⁷

	Davr	Prognoz	
Fakt	2016	57	
	2017	65	
	2018	71	
	2019	70	
	2020	61	
	2021	62	
	2022	62	
	2023	57	
	Prognoz	2024	54
		2025	51
2026		49	
2027		47	
2028		46	
2029		44	
2030		42	
2031		41	
2032		39	
2033		38	
2034		36	
2035		35	
2036		34	
2037		32	
2038		31	
2039		30	
2040		29	

Prognozning ishonchliligi MAPE (O‘rtacha mutlaq foiz xatosi), MAE (O‘rtacha mutlaq xato) va MSE (O‘rtacha kvadrat xato) kabi bir nechta usullar yordamida baholandi. Har uchala usul bo‘yicha natijalar 3 foizdan kam ekanligini ko‘rsatdi, bu esa prognozlarning ishonchliligini tasdiqlaydi (12-jadvalga qarang).

12-jadval

Prognozning ishonchliligini baholash²⁸

Assessment Criteria	Variables	VAR (1)
MAPE	pl_brand	1.712
MAE	pl_brand	1.947
MSE	pl_brand	2.752

Shuni nazarda tutish lozimki, “Ceteris paribus” qoidasiga ko‘ra, agar mamlakat iqtisodiyotda turistlar oqimining kamayishi bilan bog‘liq muammo kuzatilmasa, xorijiy investitsiyalar oqimida salbiy tendensiyasi kuzatilmasa, mamlakatning korrupsiya indeksidagi pog‘onasi salbiy tus olmasa hamda siyosiy barqarorlik saqlanib qolsagina, O‘zbekistonning “Milliy brend” reytingidagi o‘rni taklif qilinayotgan prognozlar doirasida kuzatilishi mumkin.

²⁷ Stata dasturi yordamida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

²⁸ Muallif hisob-kitoblari

XULOSA

O‘zbekiston milliy brendini shakllantirish va targ‘ib qilish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Milliy branding mexanizmlarini tanlash va ulardan foydalanish hamda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini nazorat qilish uchun Prezident ma‘muriyati huzurida alohida idora yoki Kengash tashkil etish maqsadga muvofiq. Ushbu tuzilma tegishli idoralar faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda uning a‘zolari hukumat, biznes, OAV, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari vakillari, fan, madaniyat va san‘at arboblardan iborat bo‘lishi lozim.

2. “Made in Uzbekistan” kampaniyasi “O‘zbek ipagi”, “O‘zbekiston to‘qimachilik mahsulotlari”, “O‘zbekiston quyoshi ostida yetishtirilgan”, “O‘zbekistonning organik mahsulotlari”, “O‘zbekistonning ekologik toza mahsulotlari” kabi mahalliy brendlar orqali targ‘ib qilinishi kerak.

3. Mahalliy brendlar orqali mamlakatning ijobiy qiyofasini shakllantirishning yagona milliy mafkurasiga mos keladigan “Made in Uzbekistan” kampaniyasi va mamlakatning milliy brendi konsepsiyasini ilgari surishda yarmarkalar, mintaqaviy va xalqaro ko‘rgazmalarda milliy tovar brendlarini targ‘ib qilish, jahon bozorlarida sotish uchun onlayn platformalarni tashkil etish va elektron tijoratdan samarali foydalanish zarur.

4. Mamlakatning o‘ziga xosligini, qadriyatlarini, kelajakka qarashlarini eng yaxshi aks ettiradigan, shuningdek, mamlakatni xalqaro maydonda aniq ajratib ko‘rsatadigan va ijobiy tarzda taqdim etadigan yangi logotip va slogan (shior) ishlab chiqish zarur. Bunda, mamlakat logotipi va shioridan milliy ramz sifatida foydalanishni qat‘iy tartibga solish lozim.

5. Milliy brendni ilgari surish strategiyasi shaharlar, hududlar va mahalliy tovar hamda xizmatlar brendlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi va ularni targ‘ib qilishga ko‘maklashishi kerak. Sifat va narx jihatidan raqobatbardosh mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarishga erishish, bunda uning "nufuzi" masalasini hisobga olgan holda, asta-sekin uni xalqaro darajaga ko‘tarish lozim.

6. Jahon ekspertlari va professional tuzilmalarni jalb etgan holda PR-loyihalarini amalga oshirish uchun milliy brandingning kompleks strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, O‘zbekiston milliy brendini faol targ‘ib qilish zarur.

7. Iqtisodiyotning to‘qimachilik, charm va qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirishni rag‘batlantirish, shuningdek, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega raqobatbardosh mahsulotlar eksportini ko‘paytirish uchun qo‘shma brendlarni ishga tushirish va mamlakatni ham ichki, ham tashqi bozorlarda foydali tarzda pozitsiyalashtiradigan milliy va mahalliy brendlar yordamida jahon bozorlarida ilgari surishni yaxshilash lozim.

8. Qishloq xo‘jaligi sohasida “O‘zbekiston quyoshi ostida yetishtirilgan”, “O‘zbekiston organik mahsulotlari” va boshqa brendlarni targ‘ib qilish; qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari eksportini oshirish uchun paxtachilik, g‘allachilik, bog‘dorchilik va qishloq xo‘jaligining boshqa yo‘nalishlarida klaster tizimini rivojlantirish zarur.

9. Mamlakatning rekreatsion, ziyorat, madaniy-ma'rifiy, sport, speleoturizmi va boshqa yo'nalishlardagi boy salohiyatidan kelib chiqib, mavjud turistik brend konsepsiyasini qayta ko'rib chiqish va uni "Welcome to Uzbekistan" konsepsiyasi hamda "O'zbekiston - asriy mehmondo'stlik an'analari" kabi g'oyalar asosida targ'ib qilish lozim.

10. Milliy branding media strategiyasini ishlab chiqishda lateral marketing vositalaridan foydalanish, jumladan: kengaytirilgan reallikka ega turistik mobil ilovalarni (AR) ishlab chiqish; milliy retseptlarni "aqli oshxona" formatida mahalliyashtirish; raqamli san'at galereyalarini yaratish; o'zbek musiqasini zamonaviy yo'nalishlar (jaz, elektronika) bilan uyg'unlashtirgan fyujn tadbirlari va festivallarini tashkil etish; milliy matolar (atlas, ipak) asosida zamonaviy liboslar to'plamlarini yaratish uchun taniqli dizaynerlar bilan hamkorlik qilish; mamlakatning turistik brendini kutilmagan tarzda, masalan, ekologik turizm markazi sifatida targ'ib qilish (Qizilqum cho'li bo'ylab sayyohlik yo'nalishlarini tashkil etish, xalqaro sport tadbirlarini o'tkazish uchun cho'l manzaralaridan foydalanish, elektromobil poygalari (E-Rally) va boshqalar); VR texnologiyalaridan foydalangan holda O'zbekistonning tarixiy joylariga virtual sayohatlarni yaratish nihoyatda samarali bo'lishi mumkin.

Barcha strategik vazifalarni kompleks amalga oshirishgina mamlakatning kuchli, raqobatbardosh brendini shakllantirish garovi bo'la oladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

АЧИЛОВА НАРГИЗА БАХТИЁРОВНА

**ФОРМИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО БРЕНДА УЗБЕКИСТАНА В
ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ СТРАНЫ**

08.00.11 – Маркетинг

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована под номером B2024.3.PhD/Iqt4540 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (русском, узбекском и английском (резюме)) размещён на веб-странице научного совета (www.tsue.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: Ахмедов Дурбек Кудратиллаевич
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: Болтабаев Махмуджон Рустамович
доктор экономических наук, профессор

Бекмуродов Адхам Шарипович
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: Ташкентский институт текстильной и лёгкой промышленности

Защита диссертации состоится «__» _____ 2025 года в ____ часов на заседании Научного совета по присуждению научных степеней № DSc.03/30.12.2020.I.16.02 при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100003, г. Ташкент, улица Ислама Каримова, д. 49. Тел.: (0371) 232-64-21; факс: (0371) 239-41-23; e-mail: bilimstat@exat.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрировано под номером __). Адрес: 100003, г. Ташкент, улица Ислама Каримова, д. 49. Тел.: (0371) 232-64-21; факс: (0371) 239-41-23.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрировано под номером __). Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, 4. тел.: (71) 227-12-24, (71) 246-02-24, факс: (71) 246-90-80, e-mail: rektor@nuu.uz.

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2025 года
(протокол реестра № __ от «__» _____ 2025 года)

Г.К. Абдурахманова

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

О.Дж. Джурабаев

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, кандидат экономических наук, доцент

Ш.А. Аллаяров

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность темы исследования. Динамичное нарастание глобализации мировой экономики предъявляет серьезные требования к конкурентоспособности участников хозяйственной деятельности. При этом, формы конкурентной борьбы становятся все более жесткими, а обеспечение собственной конкурентоспособности для стран является важнейшим условием его влияния и процветания. В современном мире успешное экономическое развитие государства во многом зависит от позиции, которую оно занимает на международной арене, его статуса, рейтинга и имиджа. США, Китай, Сингапур, Южная Корея, Франция, Германия и другие зарубежные страны активно работают над улучшением и продвижением своих национальных брендов в мировом сообществе. Национальный бренд США в 2024 года был оценён в 32,27 трлн. долл. США и занял 1-е место в рейтинге Nation Brands 2024 по оценке международной консалтинговой компании Brand Finance, Китай расположился на 2-м месте со стоимостью 19,96 трлн. долл. США, на 3-4-м и 5-м местах расположились Германия, Япония и Великобритания соответственно¹.

Таким образом, на сегодняшний день для каждого государства актуальной задачей является формирование благоприятного "внешнего образа" - имиджа страны, обеспечивающего его позитивное восприятие мировым сообществом, который во многом определяет его экономическую и политическую силу, а также социокультурные отношения с другими странами.

В условиях усиливающейся глобальной конкуренции в мире проводится множество научных исследований, посвященных проблемам формирования национального бренда. Приоритетными направлениями этих исследований являются: интеграция национальных ценностей и исторического наследия в стратегию бренда, создание конкурентоспособной позиции бренда на международном уровне, совершенствование методов коммуникации, направленных на улучшение имиджа государства и раскрытие потенциала нации, эффективное использование экономических и культурных ресурсов в формировании капитала бренда, продвижение национального бренда на глобальной арене через такие сферы, как туризм, экспорт и инвестиции, а также внедрение инновационных методов продвижения национального бренда посредством цифровых технологий и интернет-платформ.

Создание национального бренда нового Узбекистана, необходимого для продвижения его национальных интересов на международной арене, сохранения его уникальных ценностей и политического суверенитета, имеет актуальное значение. Следует отметить, что в продвигаемой руководством нашей страны² Стратегии действий по дальнейшему развитию Узбекистана отдельно ставится задача укрепления международного имиджа нашей страны. Как отметил Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев: «В

¹ <https://brandirectory.com/reports/nation-brands>

² Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», от 07.02.2017 г. № УП-4947

результате принятых широкомасштабных мер по политической, социальной и экономической модернизации происходит становление нового Узбекистана. Сегодня демократические преобразования в нашей стране приобрели необратимый характер³». В рамках проводимых политических реформ политика национального брендинга становится весьма актуальной и требует реализацию определённых мер для улучшения репутации страны и укрепления её позиций на мировой арене. Исходя из этого, растёт спрос на изучение, формирование и продвижение национального бренда Узбекистана на основе передового зарубежного опыта. При этом, наряду с укреплением национальной идентичности и улучшения восприятия народа страны относительно своего происхождения, продвижением её политических и экономических интересов, приоритетными направлениями национальной брендинговой стратегии должны также стать стимулирование экспорта путём повышения конкурентоспособности отечественных отраслей и производителей товаров и услуг, повышение туристической и инвестиционной привлекательности страны, создание благоприятного миграционного климата для квалифицированной рабочей силы, молодых учёных, стимулирование инноваций, развитие культуры и искусства и др. Следовательно, создание сильного бренда страны является сложной задачей, требующей всестороннего подхода по его формированию и продвижению, отражающей традиции и преимущества страны, основанных на реальных фактах и отличительных чертах. Идеологической основой должно стать формирование национального самосознания, способствующего к стремлению к идеалу, отраженному в бренде.

Данная исследовательская работа в определенной степени служит для реализации задач, поставленных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 11.09.2023 г. № УП-158 о стратегии «Узбекистан – 2030», от 1 мая 2024 года № УП-71 «О мерах по выведению на новый этап развития текстильной и швейно-трикотажной промышленности», от 11 октября 2023 г. № ПП-331 Узбекистан «О мерах по дальнейшему ускорению реформ и повышению экспортного потенциала кожевенно-обувной и меховой отраслей», от 14 марта 2024 года №ПП-126 «О мерах по дальнейшему повышению роли объединений предпринимателей в развитии внешней торговли и региональной промышленности», а также в других нормативно-правовых актах, принятых в этой сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики «I. Духовно-нравственное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

³ Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на 75-й сессии Генеральной Ассамблеи Организации Объединенных Наций. 23.09.2020. <https://president.uz/ru/lists/view/3851>

Степень изученности проблемы. Тема национального брендинга приобрела особую популярность и начала широко распространяться во всём мире с начала XXI века. Теоретические и методологические предпосылки для исследования данной темы содержатся в трудах известных отечественных и зарубежных специалистов, посвященных проблемам территориального, национального, международного маркетинга, а также публичной дипломатии.

Так, на протяжении нескольких лет национальный брендинг стал одним из наиболее изучаемых направлений маркетинга зарубежными экспертами, правительственными и неправительственными организациями, различными субъектами хозяйственной деятельности.

Национальные бренды, в роли маркетинговых инструментов рассмотрены в научных публикациях таких международных экспертов, как S. Anholt, H. Gudjonsson, F. Gilmore, T. Gad, K. Dinnie, Ph. Kotler, M. Kavaratzis, W. Olins, J. Rendon, Y. Fan, L. Heslop, Papadopoulos N. и др⁴. Также среди учёных стран СНГ, следует отдельно отметить труды Василенко, Галумова, Канаевой, КОРТУНОВА, Курсаевой, Тюкаркиной, М.Чакиева, и др⁵.

Значительный вклад в развитии маркетинговых систем и использования маркетинговых инструментов, повышения экспортного потенциала предприятий и отраслей, а также, вопросам развития системы национального маркетинга в Республике Узбекистан посвящены исследования З.Адыловой, А.Бекмурадова, М.Болтабаева, С.Гулямова, М.Касымовой, Т.Шадиева, Ш.Эргашходжаевой, вопросам продвижения национальных отечественных брендов посвящены работы Д.Ахмедова, М.Икрамова, Б.Хадиева, С.Эшматова, М.Эшова и др⁶. Хотя уделяется немало внимания вопросам

